



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISSLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyojonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	144
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT	148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova	
AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI	154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	



AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI

Boltayev Nazarbek Narzullayevich

International School of Finance Technology and Science instituti

katta o'qituvchisi i.f.f.d., (PhD)

ORCID: 0009-0004-1104-7928

Annotatsiya. Maqolada respublika iqtisodiyotining agrar sohasi tarmoqlarida klasterlar tashkil etish, klasterlarning tarmoq rivojidagi o'rni va ahamiyati hamda ularning nazariy jihatlarini yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish va qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Agroklasterning raqobatbardoshlikka ta'sir yo'nalishlari aniqlangan. Agroklasterning ishtirokchilari o'rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tizimini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda agrar tarmoq raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish masalalari yuzasidan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: tarkibiy o'zgarishlar, klaster, strategiya, strategik yo'nalishlar, raqobatbardoshlik, innovatsiya, modernizatsiya, vertikal va gorizontal integratsiya, agrosanoat klasterlari, agrar tarmoq, qo'shilgan qiymat zanjiri, institutsional islohotlar.

Abstract. This article examines the formation of clusters in the agricultural sector of the national economy, their role and significance in sectoral development, and the theoretical foundations of the cluster approach. The study analyzes issues related to increasing production efficiency and developing value-added chains. The impact directions of agro-clusters on competitiveness are identified. In addition, the development of organizational and economic relations among agro-cluster participants, the implementation of innovative technologies, and the enhancement of agricultural sector competitiveness are discussed. Scientific conclusions and practical recommendations aimed at achieving economic growth are also presented.

Key words: structural changes, cluster, strategy, strategic directions, competitiveness, innovation, modernization, vertical and horizontal integration, agro-industrial clusters, agricultural sector, value chain, institutional reforms.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы формирования кластеров в аграрном секторе экономики республики, их роль и значение в развитии отрасли, а также теоретические основы кластерного подхода. Проанализированы направления повышения производительности и формирования цепочек добавленной стоимости. Определены основные направления влияния агрокластеров на конкурентоспособность. Рассмотрены вопросы развития организационно-экономических отношений между участниками агрокластеров, внедрения инновационных технологий и обеспечения конкурентоспособности аграрного сектора, а также предложены научные выводы и практические рекомендации по достижению экономического роста.

Ключевые слова: структурные изменения, кластер, стратегия, стратегические направления, конкурентоспособность, инновации, модернизация, вертикальная и горизонтальная интеграция, агропромышленные кластеры, аграрный сектор, цепочка добавленной стоимости, институциональные реформы.

KIRISH

Bugungi kunda jahon agrosanoat majmuasida raqobatbardoshlikni oshirish bevosita ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish bilan bog'liq. Respublikamiz iqtisodiyotining agrar sohasida institutsional islohotlar doirasida klaster usulining joriy etilishi xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o'tish imkonini bermoqda. Agrar soha tarmoqlarida erkin bozor munosabatlarini o'rnatish hamda turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarini rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamlil tarkibiy islohotlar amalga oshirildi.

Lekin keyingi yillarda sohadagi mavjud imkoniyatlar va resurslardan samarali foydalanilmasligi natijasida yetishtirilayotgan mahsulotlar sifati talab darajasida bo'lmayapti, ularni tashish, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanuvchi bozor subyektlari o'rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlardagi ayrim muammo va kamchiliklar esa samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni



bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning asosiy maqsadlaridan biri — qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shirishini kamida 5 foizga yetkazish vazifasi etib belgilangan. Xususan, mazkur Farmonda iqtisodiyot tarmoqlarida “tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish” [1] masalalari strategik vazifa sifatida belgilangan.

Mazmun va mohiyati jihatidan dolzarb bo‘lgan bunday vazifalarni hal etish agrar soha tarmoqlarini uyg‘unlashgan, bir maqsadni ko‘zlagan holda, ya‘ni kompleks tarzda rivojlantirishni talab etadi. Chunki bugungi kunda mamlakat agrar soha tarmoqlarining birmuncha tarqoq holda ekanligi yetishtirilayotgan va qayta ishlanayotgan mahsulotlarning miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi bilan birga, ichki va tashqi bozorlarda shakllangan raqobat muhiti talablariga ham to‘liq javob bermayapti.

Bunday vaziyat iqtisodchi olimlar va amaliyotchilar oldiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, sotish va xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi tarmoq va korxonalar o‘rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy hamda huquqiy munosabatlarni bozor talablari asosida rivojlantirish vazifasini qo‘yadi.

Zero, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning doimiy harakatda bo‘lish qonuniyati respublikamiz agrar sohadagi tarmoq korxonalari iqtisodiyotini rivojlantirish yo‘nalishlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining tadrijiy rivojlanish jarayonlarida ham kuzatilmoqda. Bunda agrar soha tarmoqlarini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish borasida ham ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib, olimlar tomonidan dastlabki taklif va tavsiyalar berilmoqda.

Tahlil va tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, iqtisodchi olimlar tomonidan klaster tushunchasiga turlicha talqin va ta‘riflar berilgan. Ayrim olimlar klaster yondashuvida korxonalar va tashkilotlarning geografik joylashuvini asosiy mezon sifatida qayd etgan bo‘lsa, boshqalar tarmoq rivoji nuqtayi nazaridan yondashuvni ilgari suradi, yana boshqalari esa klaster tashkil etishdan asosiy maqsad sifatida innovatsiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Misol uchun, iqtisodchi olimlar Ch. Murodov va T. Ostonqulovlar fikriga ko‘ra: “Agroklaster mahalliy davlat hokimiyati organlari (tuman hokimligi), qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari (tuman fermerlar kengashi va dehqonlar) hamda qayta ishlovchi korxonalarining o‘zaro hamkorligi yoki alohida tashabbusi asosida tashkil etiladi”. Uni tashkil etishning muhim jihatlardan biri — ishtirokchilarning birgalikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish–qayta ishlash–sotish–ilmiy tadqiqot jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirgan loyihalarni amaliyotga joriy etish orqali o‘zaro ishonch darajasining yuqoriligi hisoblanadi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nazariy jihatdan qaraganda, yuqorida bildirilgan fikrlarga qo‘shilish mumkin. Biroq bildirilgan fikrlar va berilgan ta‘riflarda ma‘lum darajada umumiylik mavjud bo‘lib, klasterlarni tashkil etishda eng asosiy shartlardan biri — tarmoq va hududlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta‘minlash masalasi olimlarimiz e‘tiboridan qisman chetda qolgan, deyish mumkin.

Agrar iqtisodchi olim Sh. Hasanovning tadqiqot ishida esa: “Agroklaster — qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonlarini yagona zanjirga birlashtirish hamda yuqori texnologik innovatsiyalardan foydalanish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, qishloq joylarda infratuzilma majmuini shakllantirish va rivojlantirish, qishloq aholisining bandlik darajasi va daromadlarini oshirish hamda ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan xo‘jalik yuritish subyekti”, degan ta‘rifni berish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi [3].

Fikrimizcha, Sh. Hasanovning agroklasterlarga bergan ta‘rifi nazariy va amaliy jihatdan birmuncha asosli bo‘lib, klasterlashdan ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlarini qamrab oladi.

Umuman, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta‘minlashda asosiy yondashuvlardan biri sifatida “klaster” nazariyasining asoschilaridan biri — Michael Porter hisoblanadi. Ushbu olim birinchilardan bo‘lib klaster atamasini konseptual jihatdan asoslab bergan. Uning ta‘rifiga ko‘ra, klaster — geografik jihatdan bir hududda joylashgan va o‘zaro aloqador kompaniyalarning ishlab chiqarish, tayyorlov, ta‘minot, xizmat ko‘rsatish hamda sotish jarayonlari orqali yagona maqsadni ko‘zlagan holda birlashuvidir.

Ilmiy nuqtai nazardan Michael Porterning “klaster” nazariyasi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini shakllantiruvchi asosiy omillarga tayanadi. Unga ko‘ra, yaqin va o‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlar mavjudligi, korxonalarining tarkibiy tuzilmasi va strategiyasi, shuningdek, raqobatchilarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Olimning fikricha, aynan ushbu omillarning o‘zaro uyg‘unligi va birgalikdagi ta‘siri ostida davlatlar, hududlar va tarmoqlarning raqobatbardoshligi ta‘minlanadi [4].

Ta‘kidlash joizki, iqtisodiyotning globalashuvi va raqobatning kuchayishi sharoitida klaster yondashuvi asosida tashkil etilayotgan iqtisodiyotlar va hududlar rivojlanishda yetakchi o‘rinlarni egallamoqda. Bunday hududlar va tarmoqlar o‘zlari joylashgan davlat hamda milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshlik darajasini belgilab bermoqda.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash sanoati tarmoq korxonalarining integratsiyalashuvi asosida agroklasterni tashkil etish agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ustunliklarni yaratadi. Jumladan, birinchidan, klasterga kiruvchi korxonalarda mehnat unumdorligi oshadi; ikkinchidan, innovatsion rivojlanish imkoniyatlari kengayadi; uchinchidan, tadbirkorlikning yangi turlari shakllanadi hamda klaster faoliyati kengayadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv tanlab olindi. Bu agroklasterni alohida korxonalar sifatida emas, balki qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish va ilm-fanni birlashtiruvchi yaxlit iqtisodiy tizim sifatida o'rganish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining klasterlar faoliyatini tartibga soluvchi farmon va qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlashga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari tadqiq etildi. Bu klasterlarning huquqiy maqomi va ularga berilgan imtiyozlarning amaliy ta'sirini baholashga xizmat qildi.

Ayrim klasterlar tajribasidagi muvaffaqiyatli keyslar o'rganilib, ular asosida butun agrosanoat majmuasi uchun umumiy xulosalar hamda rivojlanish modellari ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Nazariyaga ko'ra, klasterlar bir-biridan farqlanuvchi ikki turdan iborat, ya'ni tarmoq va hududiy shaklda bo'ladi. Klasterlarning iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga ta'siri esa shartli ravishda uchta yo'nalishda amalga oshadi (1-rasm).



1-rasm. Klasterlarning iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga ta'sir yo'nalishlari



Respublikamiz va rivojlangan xorijiy davlatlarda agrosanoat klasterlari tizimida tadbirkorlikka asoslangan o'zaro aloqalarni tashkil etish va rivojlantirish borasidagi tajribalarning nazariy hamda amaliy asoslarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, yuqorida qayd etilgan muammoni hal etish agroklasterlar faoliyatini samarali tashkil etish va tadbirkorlik subyektlari samaradorligini oshirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.


Keltirilgan rasmdan ko'rish mumkinki, qayd etilgan yo'nalishlar tarmoq va firmalarda raqobat ustunligi hamda mehnat unumdorligini oshirish; ishlab chiqarishni innovatsion asosda rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish; shuningdek, klasterlarni kengaytirish va yangi a'zolarini jalb qilish orqali qo'shimcha tijorat yo'nalishlarini rag'batlantirishni ko'zda tutadi.

Shuningdek, hududiy va ishlab chiqarish klasterlari tarkibidagi bozor subyektlari o'rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar muayyan tartib va tamoyillarga asoslanishi talab etiladi. Bunda:

— birinchidan, davlat va tarmoq vazirliklari, hududiy hokimiyat organlari hamda klasterlarni muvofiqlashtiruvchi kengash (u klaster faoliyatiga bilvosita ta'sir ko'rsatib, tartibga solish funksiyasini bajaradi);

— ikkinchidan, klaster ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda asosiy tovarlarni ishlab chiqaruvchi (xizmat ko'rsatuvchi) korxonalar bo'lib, ular o'zaro vertikal va gorizontal aloqalarda faoliyat yuritadi;

— uchinchidan, asosiy tovarlarni ishlab chiqaruvchi tarmoq korxonalari faoliyatiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bevosita ta'sir ko'rsatmaydi. Ya'ni, ular ishlab chiqaruvchilar tomonidan berilgan talabnomalar asosida faoliyat yuritib, ishlab chiqarishning yakuniy natijalaridan bevosita manfaatdor bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Klaster tarkibidagi korxonalar va tashkilotlar o'rtasida o'zaro munosabatlar (aloqadorlik) tizimi.

Umuman olganda, klaster ichidagi o'zaro munosabatlarni ikki yondashuv nuqtayi nazaridan tavsiflash mumkin: birinchi yondashuv — biznes jarayonlarini tashkil etish, ikkinchi yondashuv esa ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Bunda har ikkala yondashuv ham tashkiliy va tarkibiy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Birinchi yondashuvda qo'yilgan maqsadga erishish uchun tadbirkorlik subyektlarining birgalikdagi harakatlari, ya'ni biznes jarayonlarini tarkiblashtirish ko'zda tutiladi, ikkinchi yondashuvda esa o'zaro harakatlarni ijtimoiy institutlar sifatida birlashmalar doirasida chiziqli-funksional usulda tashkil etiladi.

Ya'ni, klaster ichida o'zaro ichki aloqalarning moslashuvchan mexanizmini shakllantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsion asosda rivojlantirish hamda moliyaviy holat va ta'minot tizimini takomillashtirish masalalarini hal etishda muhim o'rin tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shundan kelib chiqqan holda, agrosanoat klasterida tadbirkorlik subyektlari o'rtasida biznes jarayonlarini tashkil etishda turli yo'nalishdagi subyekt va birlashmalar o'rtasida ko'p darajali, ya'ni bir nechta yo'nalishlarni qamrab olgan, o'zaro manfaatli aloqalarni shakllantirish va rivojlantirish klaster faoliyatini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.



Ya'ni, klaster tarkibidagi korxonalarining tashqi muhit (mahalliy hokimiyat organlari, moliyaviy institutlar, iste'molchilar va h.k.) bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini kengaytirish barobarida klasterlar joylashgan hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytish lozimki, iqtisodiyotning agrar sohasi tarmoqlarini klaster yondashuvi asosida rivojlantirish, hududiy va ishlab chiqarish yo'nalishlarida agroklasterni tashkil etishda, avvalo, tashkiliy boshqaruv va maqsadli yo'nalishlarni aniq belgilash, shuningdek, tashkil etilishi ko'zda tutilgan klasterni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish talab etiladi. Shu jihatdan, agrosanoat klasterlarini respublikamiz hududlari va agrar soha tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ma'lum bir tartib va tamoyillar asosida amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Портер М. Конкуренция. – Москва; Санкт-Петербург; Киев: Издательский дом «Вильямс», 2005. – 221 с.
3. Hasanov Sh. Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish: iqtisod fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – Toshkent, 2017. – 164 b.
4. Boltaev N.N. Strategic integration and diversification in the viticulture sector: a cluster-based approach to sustainable development // EPRA International Journal of Agriculture and Rural Economic Research. – India, 2025. – Vol. 13, Issue 5. – P. 18–25. (ISSN: 2321-7847; SJIF 2025: 8.733).
5. Boltaev N.N. Cluster-oriented strategies for the integration and diversification of Uzbekistan's viticulture sector // International Journal of Climate and Resource Economic Review (CRER). – India, 2025. – Vol. 13, Issue 5. – P. 1–6. (ISSN: 2347-7431; SJIF 2025: 8.54). DOI: 10.36713/epra1213.
6. Fayziyev O.R., Boltaev N.N., Aytimbetov A.K. Agroklasterni faoliyatini tashkil etishga uslubiy yondashuvlar // Agrar tarmoq iqtisodiy salohiyatini oshirishda institutsional islohotlar va agroklasterni rivojlantirishning o'rni: muammo va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – 2021-yil 18-may. – B. 290.
7. Boltaev N.N., Fayziyev O.R. Agromahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda klaster siyosati va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari // Agrar tarmoq iqtisodiy salohiyatini oshirishda institutsional islohotlar va agroklasterni rivojlantirishning o'rni: muammo va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – 2021-yil 18-may. – B. 327.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
